Saydullayeva A.R.
Farg`ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d.(PhD)
Jumayeva B.T.
Farg`ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

GENDER YONDASHUV ASOSIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK RESURSLARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya *Ushbu tezisda yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda gender yondashuvning ahamiyati hamda etnopedagogik resurslardan samarali foydalanishning o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini, hamkorlik, bag‘rikenglik va mas’uliyat kabi fazilatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik imkoniyatlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kuzatish, tahlil, pedagogik tajriba va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, etnopedagogik resurslarga asoslangan gender yondashuv o‘quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni, muloqot madaniyatini va ijtimoiy mas’uliyatni sezilarli darajada rivojlantiradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, gender tenglik tamoyillariga asoslangan etnopedagogik yondashuv yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy barkamolligini ta’minlashda samarali pedagogik model hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy kompetentlik, gender yondashuv, etnopedagogika, qadriyatlar, mas’uliyat, bag‘rikenglik, hamkorlik, milliy meros, tarbiya, innovatsion yondashuv, ijtimoiy faollik, ta’lim jarayoni.*

Аннотация *В данном тезисе анализируется роль гендерного подхода и этнопедагогических ресурсов в развитии социальной компетентности учащихся старших классов. Цель исследования выявить педагогические возможности, основанные на национальных ценностях, в формировании социальной активности, ответственности и толерантности школьников. В исследовании применялись методы наблюдения, анализа, педагогического эксперимента и сравнительного анализа. Результаты показали, что использование этнопедагогических ресурсов в сочетании с гендерным подходом способствует развитию у учащихся социальной компетентности, культуры общения и ответственного поведения. В заключение отмечается, что этнопедагогический подход, основанный на принципах гендерного равенства, является эффективной моделью воспитания личностной и социальной зрелости молодежи.*

Ключевые слова: *социальная компетентность, гендерный подход, этнопедагогика, ценности, ответственность, толерантность, сотрудничество, национальное наследие, воспитание, инновационные технологии, социальная активность, образовательный процесс.*

Abstract *This thesis analyzes the importance of a gender-based approach and the role of ethnopedagogical resources in developing social competence among high school students. The*

purpose of the study is to identify pedagogical opportunities based on national values for fostering students’ social activity, responsibility, and tolerance. Observation, analysis, pedagogical experiment, and comparative analysis methods were used in the research. The findings show that integrating ethnopedagogical resources with a gender approach significantly enhances students’ social competence, communication culture, and sense of responsibility. In conclusion, an ethnopedagogical model grounded in gender equality principles is an effective approach to ensuring the personal and social development of youth.

Keywords*: social competence, gender approach, ethnopedagogy, values, responsibility, tolerance, cooperation, national heritage, upbringing, innovation, social activity, education process.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki ijtimoiy kompetentlik shaxsning jamiyatda samarali muloqot qila olishi, ijtimoiy rollarni anglab, mas’uliyatli qarorlar qabul qila bilishi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy jihatdan yetuk, tolerant, hamkorlikka tayyor shaxs sifatida shakllanishi ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardandir.

Ta’lim jarayonida gender tenglik tamoyillariga rioya etish, o‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda gender yondashuvdan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda. Gender yondashuv o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ijtimoiy rollarini inobatga olgan holda, ularning ijtimoiy kompetentligini teng sharoitda shakllantirishga imkon yaratadi. Bu esa o‘g‘il va qiz bolalarning ta’lim jarayonida o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun muhim pedagogik shart-sharoit hisoblanadi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik pedagogik tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va xalq og‘zaki ijodi etnopedagogikaning boy manbaidir. Ushbu manbalardan ta’lim jarayonida foydalanish yosh avlodni milliy o‘zlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash imkonini beradi. Shu jihatdan, etnopedagogik resurslarni gender yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Etnopedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarda nafaqat milliy qadriyatlarga hurmat hissini, balki jamiyatda o‘z o‘rnini anglash, tenglik, hamkorlik va empatiya kabi fazilatlarni ham shakllantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy qadriyatlarni singdiruvchi, gender madaniyatini targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida faol ishtirok etadi.

Ushbu izlanishning dolzarbligi yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda gender tenglik tamoyillari bilan uyg‘unlashgan etnopedagogik resurslardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, ularning samaradorligini o‘rganish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonini milliy qadriyatlarga tayangan holda modernizatsiya qilish, gender tenglikka asoslangan ijtimoiy tarbiyani kuchaytirish va yoshlarni fuqarolik mas’uliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillariga tayanadi[13]. Gender yondashuv ana shu tamoyillarning amaliy ifodasidir. U o‘quvchi-yoshlarning jinsiy tafovutlarini emas, balki ularning imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiyani tashkil etishni nazarda tutadi. Gender yondashuv ta’lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning teng sharoitda bilim olishini, o‘z fikrini erkin ifoda etishini va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta’minlaydi[14]. Bu yondashuv, bir tomondan, o‘quvchilarni jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida tarbiyalasa, ikkinchi tomondan, ularni mas’uliyatli, hamkorlikka tayyor va empatik shaxslar sifatida shakllantiradi. Ta’limda gender yondashuvni qo‘llashning samarasi o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish, muloqot madaniyatini oshirish hamda ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglash orqali namoyon bo‘ladi.

Etnopedagogik resurslar esa xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy, axloqiy, madaniy va tarbiyaviy tajribalarini o‘zida mujassam etgan qadriyatlar tizimidir. Ular xalq og‘zaki ijodi, maqollar, rivoyatlar, afsonalar, milliy o‘yinlar, marosimlar, urf-odatlar va oila qadriyatlari kabi ko‘plab an’anaviy unsurlarda namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida etnopedagogik resurslardan foydalanish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘zini jamiyatning muhim a’zosi sifatida his etishiga, o‘z madaniyatiga tayanib global jarayonlarda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Etnopedagogik resurslardan foydalanish o‘quvchilarning tarbiyaviy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirish, milliy o‘yinlar orqali jamoaviylik va hamkorlikni rivojlantirish, urf-odatlar asosida bag‘rikenglik va hurmatni kuchaytirish, oila qadriyatlari orqali mas’uliyat va mehr-muhabbatni singdirish imkonini beradi.

Etnopedagogik resurslarni gender yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida sinergetik samarani beradi. Chunki bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi: gender yondashuv tenglik, adolat va inson huquqlarini ta’minlasa, etnopedagogika esa milliy qadriyatlar va madaniy meros orqali bu tamoyillarni ma’naviy jihatdan mustahkamlaydi. Masalan, xalq og‘zaki ijodida erkak va ayol obrazlari o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamkorlik g‘oyalariga asoslangan. Shu jihatdan, bu materiallardan ta’lim jarayonida foydalanish o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida o‘zaro tushunish, tenglik va hamjihatlikni shakllantiradi. Shuningdek, gender yondashuv asosida tashkil etilgan loyihaviy darslar, rolli o‘yinlar, munozaralar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Etnopedagogik resurslarni gender yondashuv asosida qo‘llashda o‘qituvchi markaziy o‘rinda turadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyatlar targ‘ibotchisi, gender madaniyati namunasi va ijtimoiy muloqotni shakllantiruvchi shaxs sifatida faol ishtirok etadi. Shu bois, pedagog ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishi, har bir o‘quvchining imkoniyatlarini inobatga olgan holda teng sharoit yaratishi muhimdir. Metodik jihatdan bunday yondashuvda integrativ, interfaol, loyihaviy va refleksiv metodlar samarali

[13] Mahmudova D.A. Ta’limda gender yondashuvning mohiyati va ahamiyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2020. – B. 156.

[14] UNESCO. Gender equality in education: A review of global progress. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – P. 92.

natija beradi. Integrativ yondashuv fanlararo bog‘liqlikda etnopedagogik materiallardan foydalanishni, interfaol metodlar munozara, “rol o‘ynash”, “muammoli vaziyat” kabi usullar orqali o‘quvchilarni teng ishtirokchi sifatida jalb etishni, loyihaviy yondashuv o‘quvchilarni milliy merosni o‘rganish va targ‘ib etishga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyatlarga jalb etishni, refleksiv yondashuv esa o‘quvchilarning shaxsiy fikr va tajribasini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday metodlar orqali ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoniga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida gender yondashuv va etnopedagogik resurslardan birgalikda foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gender yondashuv ta’lim tizimida tenglik, adolat va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlasa, etnopedagogik resurslar milliy qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlar orqali bu tamoyillarni ma’naviy jihatdan boyitadi.

Mazkur uyg‘unlik o‘quvchi nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, tolerant, empatik va hamkorlikka tayyor shaxs sifatida tarbiyalaydi. Xalq og‘zaki ijodi, oila qadriyatlari, milliy o‘yinlar va marosimlar orqali talabalarda jamiyatdagi o‘rni, jinsidan qat’i nazar, teng imkoniyatlar asosida faol ishtirok etish zarurligi haqidagi tushunchalar shakllanadi.

Gender yondashuvni etnopedagogik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv-tarbiyaviy jarayonni yanada mazmunli, madaniy va tarbiyaviy jihatdan boyitadi. Bu esa talabalarning ijtimoiy kompetentligini, fuqarolik mas’uliyatini, milliy g‘urur va ijtimoiy birdamlikni rivojlantiradi.

Gender yondashuv asosida etnopedagogik resurslardan foydalanish bu zamonaviy ta’limda shaxsni har tomonlama rivojlantirish, tenglik va adolat g‘oyalarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali faol, ongli va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Noshir”, 2018. – B. 188.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – P. 247.
3. Hasanov U. Milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2015. – B. 134.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011. – B. 240.
5. Mahmudova D.A. Ta’limda gender yondashuvning mohiyati va ahamiyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2020. – B. 156.
6. Qodirova F.R. Etnopedagogikaning nazariy asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2019. – B. 212.
7. UNESCO. Gender equality in education: A review of global progress. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – P. 92.
8. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – B. 168.
9. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. учеб. зав. / А.В.Мудрик. – 2-е издание, испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2006. – С. 304.

10. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: Магистр, 2017. – С. 276.